
Mehnat yarmarkasida 12 nafar fuqarolar doimiy ishga joylashdi

Farg'ona shahridagi 1-sektor shtabida ish bilan band bo'lmagan fuqarolar bandligini ta'minlash maqsadida bo'sh ish o'rinlari "Mehnat yarmarkasi" tashkil etildi. Unda 50 nafardan ortiq ishsiz fuqarolar ishtirok etishdi.

Yarmarkada o'ndan ortiq korxonalar, tashkilot va muassasa vakillari o'zlarida mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlarini taklif etishdi. Tadbir davomida 10 nafarga yaqin yoshlar kasbga qayta o'qitishga yo'naltirildi.

Shuningdek, iqtisodiyotning turli sohalariga 12 nafar fuqaro ishga joylashtirildi, mehnat qonunchiligi, kooperativlarga a'zo bo'lish, haq to'lanadigan jamoat ishlariga joylashish, ishsizlik nafaqasi olish bo'yicha ham huquqiy maslahatlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-21 22:25:04